

35. Noma'lum kamayuvchini topish

Kamayuvchi – ayriluvchi = ayirma

Kamayuvchi =
= ayirma + ayriluvchi

$$9 - 4 = 5$$

$$9 = 5 + 4$$



1. Podachi har kuni dalaga 10 ta qo'yni olib chiqadi. 4 ta qo'y daraxtlarning soyasida, qolganlari esa oftobda o'tlashni yoqtiradi. Oftobda nechta qo'y o'tlaydi?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Kechqurun hamma qo'ylar uyga qaytganini podachi qanday biladi?



2. Jadvalni to'ldiring.

Kamayuvchi	9								
Ayriluvchi	7	5	6	4	3	4	1	3	2
Ayirma	2	3	1	4	0	6	9	1	8



3. Misollar tuzing va ularni yeching.

a) Daraxtdan 🍏🍏🍏🍏🍏 terishdi.

Daraxtda 🍏🍏🍏 qoldi. Daraxtda nechta olma bo'lgan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

b) Fermer 🐣🐣🐣🐣🐣🐣🐣 sotdi. Tovuqxonada


🐣🐣 qoldi. Fermerning nechta jo'jasi bo'lgan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

35. Noma'lum kamayuvchini topish



4. a) Gulning rasmini shunday chizingki, buta undan 6 qadam chapda bo'lsin.
b) Sabzining rasmini shunday chizingki, u karam va sholg'omning o'rtasiga ekilgan bo'lsin.




5. Fermer hamma sabzi hosilini qoplarga joyladi. 8 qop sabzini do'konga topshirdi, qolgan 2 ta qopni uyida qishga qoldirdi. Fermer hammasi bo'lib necha qop sabzi yig'ib oldi?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



6. Ko'rsatma bo'yicha chiziqlarni davom ettiring. Ko'rsatkich bo'ylab harakatlaning. Kim g'olib chiqadi?



$9 - 8 \rightarrow$,	$7 - 6 \downarrow$,	$8 - 6 \downarrow$,
$5 - 4 \downarrow$,	$0 + 1 \leftarrow$,	$7 - 4 \leftarrow$,
$3 + 2 - 4 \rightarrow$,		$10 - 7 \uparrow$

Qanday chiziq hosil bo'ldi?

☐ SINIQ CHIZIQ

☐ EGRI CHIZIQ

☐ TO'G'RI CHIZIQ



7. Said, Ulug'bek, Lola va Aziz natural sonlar qatorini yozishdi. Lola ko'k rangli ruchkasini uyda qoldirgan, Aziz va Lola to'g'ri yozishgan, Ulug'bek esa bitta sonni unutib qoldirgan. Kim qaysi qatorni yozganini toping? Har bir qatorning yoniga bolalar ismining bosh harfini yozing.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9